

“BELGILAR” 《符号》 QISSASIDA ILMIY FANTASTIKA POETIKASI

Nigina Rasuleva

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Xitoyshunoslik oliy maktabi dotsenti, PhD

nigina1114@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21788796>

Annotatsiya

Mazkur maqolada Han Song 韩松 “Belgilar” 《符号》 qissasining ilmiy fantastika poetikasi tahlil qilinadi. Asarda ramziy obrazlar, ilmiy g’oyalar va falsafiy mushohadalarning o’zaro uyg’unligi yoritilib, muallifning zamonaviy Xitoy ilmiy fantastikasiga xos poetik uslubi ochib beriladi. Tadqiqot qissaning janr xususiyatlari hamda uning g’oyaviy-badiiy ahamiyatini aniqlashga qaratilgan.

Kalit so’zlar: Zamonaviy Xitoy adabiyoti, Han Song 韩松, ilmiy fantastika janri, poetika, ilmiy g’oya.

Begonalik, yotlik va sirli tuyg’ular Han Song 韩松 ilmiy fantastikasining bosh estetik xususiyatlaridan biridir. Asarlarida u murakkab va ko’p qatlamli badiiy makonlarni yaratgan bo’lsa-da, real hayotda insoniyat kelajagiga nisbatan umidini yo’qotmagan. Koinotning asl mohiyatini anglashga bo’lgan intilish Han Song 韩松 ning butun ijodiga kuch bag’ishlagan asosiy omildir. Uning fikricha, ilmiy fantastik asar yaratish— koinot haqidagi haqiqatni izlash yo’lidagi muhim qaydlar kundaligidir. U ta’lim olgan Uxan universitetining mustaqil, erkin va xilma-xillikka asoslangan akademik muhiti esa yozuvchining dunyoqarashi shakllanishida beqiyos o’rin tutgan. Adibning fikricha, yozuvchi sifatida inson o’zining mustaqil fikrini saqlab qolishi, obro’ va bosimlarga qaram bo’lmasligi zarur. Ana shundagina ijodkor haqiqiy erkinlikka erishadi. Ilmiy fantastika aslida qomusiy bilimlarni talab qiladigan adabiyotdir. Uni yaratish uchun gumanitar fanlarni ham, tabiiy va texnika fanlarini ham chuqur bilish zarur. Shu ma’noda, Uxan universiteti Han Song 韩松 ga juda mustahkam ilmiy poydevor yaratib berdi.

Yozuvchining ilmiy fantastika haqidagi qarashlari g’ayrioddiylikni izlash va koinotning asl mohiyatini tadqiq etish jarayonida shakllangan. Han Song 韩松 ilmiy fantastikani hali yaxshi tushunmagan paytida ham shunday ijod qilishga intilgan. Agar ijodkor bo’lishni istasangiz, avvalo voqelikni sinchkovlik bilan kuzatishingiz, ilmiy fantastikada ilmiy tafakkur va ilmiy ruh qanday namoyon bo’lishi haqida o’ylashingiz lozim.

Han Song 韩松 bolaligidan astronomiyaga qiziqqan. Tabiatni sevgan. Bolalikdagi qiziqishlari ham, ulg’aygan muhiti ham uning ilmiy fantastik dunyoqarashining shakllanishida muhim omil bo’ldi.

Universitet muhiti esa bu jarayonni yanada chuqurlashtirdi.

Adib bolalikdagi taassurotlari universitetdagi ilmiy muhit bilan uyg’unlashgach, go’yo yana bir bor ilhom oldi. Agar universitetdagi ilmiy atmosfera bo’lmaganida, ehtimol bugungidek ilmiy fantastikaga bunchalik kuchli qiziqmagan bo’lard.

Han Song 韩松 doimo olam qanday paydo bo'lgan, Yer qanday shakllangan, insoniyat qanday vujudga kelgan kabi savollar haqida o'ylagan. Aynan shu savollar keyinchalik ilmiy fantastik asarlar yozishiga kuchli turtki bo'ldi.

Ilmiy fantastikaga oid qarashlarining shakllanishi ikki manbaga tayanadi: bolalikdan to'plangan hayotiy tajriba hamda universitetdagi ilmiy muhit.

Liu Cixin 刘慈欣 yoki Wang Jinkang 王晋康 ning ko'plab asarlari ular ulg'aygan muhit bilan chambarchas bog'liq.

Bugungi kunda esa ko'plab yosh yozuvchilar asarlarini internetdan yig'ilgan ma'lumotlar asosida yozishmoqda. Biroq bunday asarlarda ko'pincha haqiqiy hayot tajribasi yetishmaydi. Albatta, internet orqali ham yaxshi asar yaratish mumkin. Ammo chinakam hayot tajribasi baribir o'rnini bosmaydi.

Han Song 韩松 ning *“Belgilar”* 《符号》 qissasi XXI asr xitoy ilmiy fantastikasida belgi, til, axborot va hokimyat munosabatlarini markazga qo'ygan eng murakkab va falsafiy asarlardan biridir. Badiiy yo'nalishi: “axborot jamiyati” tanqidi ruhida yozilgan bo'lib, semiotik distopik roman namunasi sifatida alohida o'rin tutadi. Roman qahramoni Xiao Wu 小武 dunyoga ishonmasdan, kun bo'yi ko'chada xuddi telba kabi uyqusida yugurib yuradi. Metrodagi yashirin sirlarni aniqlagach, uning haqiqatni izlash istagini bostirib bo'lmaydi va u yer osti dunyosiga kiradi. Yer osti dunyosida Xiao Wu 小武 doimo hamrohlarining uni yeb qo'yishidan qo'rqib yashaydi. U bir paytlar g'oyib bo'lib, keyin qaytgan chet ellik yo'lovchilarni xuddi o'tmishdagi missionerlar kabi odam yeb qo'yish uchun maxsus jo'natilgan shaxslar deb hisoblaydi. U, kuchli qo'rquv va taranglik holatida katta inqirozga tushib qoladi, o'zini aldangan his qiladi va oxir-oqibat *“Meni qutqaring!”* deb baqiradi. Romanda sovuq, hujjatga o'xshash fragmentlar mavjud. *“Belgilar”* 《符号》 romanida aniq “katta voqea” yoki klassik syujetdan ko'ra, belgilar tizimi markazda turadi. Jamiyatda: so'zlar, raqamlar, kodlar, shiorlar asta-sekin ma'nodan uzilib, mustaqil kuchga aylanishi yoritilgan. Insonlar esa bu belgilarni yaratgan subyekt emas, balki ular tomonidan boshqariladigan obyektga aylanib borishi ko'rsatib berilgan.

— 这些符号是什么意思？

— 不需要理解，只需要服从。

— 可是不理解，怎么服从？

— 正因为不理解，才更容易服从。”

— Bu belgilar nimani anglatadi?

— Tushunish shart emas, bo'ysunish kifoya.

— Tushunmasdan qanday bo'ysunish mumkin?

— Aynan tushunmaganing uchun bo'ysunishing osonroq.” Muallif axborot orqali boshqarish mexanizmini ochib beradi.

— 信息越来越多，真相在哪里？

— 真相已经被信息淹没了。

— 那我们该相信什么？

— 相信符号本身。”

— *Axborot tobora ko'paymoqda, haqiqat qayerda?*

— *Haqiqat axborot ostida cho'kib ketgan.*

— *Unda nimaga ishonishimiz kerak?*

— *Belgilarning o'ziga.*” Bu dialog postmodern axborot jamiyati tanqidi hisoblanadi.

“*Belgilar*” 《符号》 asarida suhbatlar shaxs, til va hokimiyat o'rtasidagi munosabatlarning izdan chiqishini ko'rsatib, insonning belgilar tizimi ichida erib ketishini badiiy jihatdan ifodalaydi. Asar syujeti bevosita fantastik ko'rinsa ham, u bugungi real voqelik bilan juda kuchli rezonans beradi. Asarda inson ismi, xotirasi va shaxsiyati yo'qolib, u raqam, kod, belgi sifatida mavjud bo'ladi. Hozirgi real hodisalar: biometrik pasportlar, raqamli ID, QR-kodlar, akkaunt, login, identifikator orqali “tanilish”. Ya'ni bugungi jamiyatda inson tobora “kimligi bilan emas, tizimda qanday belgi bilan ro'yhatdan o'tgani” bilan baholanmoqda. Bu- Han Song 韩松 ko'rsatgan distopiyaning real shakli. Axborot ko'pligi va haqiqatning yo'qolishi motivi romanda belgilar ko'paygani sari ma'no yo'qolishi va haqiqatni ajratib bo'lmazligi tarzida beriladi. Bugungi kundagi, ijtimoiy tarmoqdagi sohta yangiliklar, sun'iy intellekt yaratgan matnlar va tasvirlarga to'g'ri keladi. Muammo- axborot yetishmasligi emas, balki haqiqatni tanib olish qobiliyatining yo'qolishi. Bu asardagidagi asosiy ogohlantirishdir. “*Belgilar*” 《符号》 qissasidagi belgi hukmronligi bugungi axborotlashgan jamiyatda shaxsning raqamli identifikatsiya orqali obyektlashuvini ifodalaydi.

Avvalo, yozuvchi juda kuchli til mahoratiga ega bo'lishi kerak. U inson ruhiyatini chuqur tushuna olishi, obrazlarni nozik detallar orqali yaratishi zarur. Badiiy til tabiiy va ta'sirchan bo'lishi kerak.

Masalan, Han Song 韩松 Liu Cixin 刘慈欣ning adabiy mahoratini juda yuqori baholaydi. Uning asarlarida voqealar tabiiy rivojlanadi, obrazlar kuchli yaratilgan va o'quvchiga katta ta'sir ko'rsatadi- deya ta'kidlaydi.

Shu sababli u yaratgan ko'plab qahramonlar bugungi Xitoy ilmiy fantastikasi tarixida unutilmas obrazlarga aylangan.

Ilmiy fantastika taraqqiyoti nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, bugungi kunda jamiyatning tasavvur qilish salohiyati avvalgidan ancha yuqori.

Ammo hali ham muhim muammo mavjud.

Insonlar fantastik voqealarni yoki virtual olamlarni tasavvur qila oladilar. Ammo ilm-fanga tayangan holda haqiqiy innovatsiyalarni tasavvur qilish qobiliyati hali yetarlicha shakllanmagan.

Ayniqsa fundamental fanlar sohasida tasavvur kuchi juda muhim. Kashfiyotlar faqat mantiqiy fikrlash orqali emas, balki tasavvur yordamida ham yuzaga keladi. Ilmiy fantastika aynan mana shu ijodiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin. Agar bolalar va yoshlar ko'proq ilmiy fantastika o'qisalar, ularning tasavvur doirasi tabiiy ravishda kengayadi. Birinchidan, ilmiy fantastika o'zining avangardlik xususiyatini saqlab qolishi kerak.

Uni shunchaki texnologiyalar haqidagi hikoyalar bilan cheklab qo'yish mumkin emas. Xitoy ilmiy fantastikasi jamiyatda katta madaniy hodisaga aylanishi, keng kitobxonlar ommasiga yetib borishi lozim.

Ikkinchidan, ilmiy fantastika o'z mohiyatiga qaytishi zarur.

Bugungi kunda bozor talablari, kino va seriallar ta'siri sabab ayrim asarlar asl ilmiy fantastikadan uzoqlashmoqda. Liu Cixin 刘慈欣ning muvaffaqiyati ilmiy fantastikaning o'z tabiatiga qaytish mumkinligini ko'rsatdi. U ilmiy fantastikaning ilgari to'liq namoyon bo'lmagan estetik imkoniyatlarini ochib berdi.

Bu juda qimmatli tajribadir.

Uchinchidan, yozuvchilar sabr bilan asar yaratishlari lozim. Yosh avlod ko'plab fanlarni, jahon adabiyotini, xorijiy ilmiy fantastikani, ijtimoiy fanlarni va zamonaviy texnologiyalarni o'rganib kelmoqda.

Yangi bilimlarni uzluksiz egallamasdan turib yaxshi ilmiy fantastika yaratish qiyin. Shuningdek, yozuvchi real hayotni kuzatishi kerak. Faqat uyda o'tirib ijod qilish yetarli bo'lmaydi. Bugungi ayrim yosh mualliflar boshqalarning asarlarini ham deyarli o'qimasdan yozishga kirishmoqda. Natijada ularda yangi g'oya, yangi uslub paydo bo'lmaydi. Xulosa qilib aytganda:

ilmiy fantastika o'z avangardligini saqlashi,
o'z mohiyatiga sodiq qolishi,
yozuvchilar esa doimo o'rganishda davom etishlari kerak.

Han Song 韩松 ning "*Belgilar*" 《符号》 qissasi zamonaviy Xitoy ilmiy fantastikasining poetik xususiyatlarini yorqin namoyon etuvchi asarlardan biridir. Asarda ilmiy g'oyalar ramziy tasvir va falsafiy mushohadalar bilan uyg'unlashib, kitobxonni jamiyat, inson va axborot makoni haqida teran mulohaza yuritishga undaydi. Shu jihatdan qissa Xitoy ilmiy fantastikasi poetikasini o'rganishda muhim badiiy manba hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. 李钰.乌托邦背景下的中国新生代中国科幻文学研究[D]. 济南: 山东大学, 2014.
2. 吴宏阳.世纪之交中国科幻小说创作的本土化特征[D]. 南京: 东南大学, 2016.
3. 陈果.新生代科幻小说的现代性反思[D]. 长沙: 湖南师范大学, 2016.
4. <http://www.wanfangdata.com.cn/>
5. <https://www.chinawriter.com.cn>